



Munisxon OTAXONOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti
E-mail:munisaotaxonova429@gmail.com
Baxora ERGASHOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ITALYAN TILIDA UNDOV SO'ZLARINING NUTQ EMOTSIONALLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI (MANZONINING "I PROMESSI SPOSI" ASARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu ishda Italiyaning mashhur yozuvchisi Alessandro Manzoning "I Promessi Sposi" asarida undov so'zlarining nutq emotsionalligini oshirishdagi o'rni o'rganiladi. Undov so'zlar, ya'ni his-tuyg'ularni ifodalovchi so'zlar, asar qahramonlarining ichki dunyosini va hissiyotlarini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Manzoni, o'z asarida undov so'zlardan foydalanish orqali qahramonlarining qayg'u, sevgi, umid va qo'rquv kabi his-tuyg'ularini jonlantiradi. Bu so'zlar, o'quvchiga qahramonlar bilan birga his qilish imkonini berish orqali voqealarning ta'sirini kuchaytiradi. Asarda qo'llaniladigan undov so'zlar misollari, ularning kontekstdagi o'rni va nutqning emotsional yukini qanday oshirishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: undov so'zlar, emotsional ifoda, nutq, tarixiy kontekst, tahlil, adabiyotshunoslik, ijtimoiy muammolar.

РОЛЬ ВОСКЛИЦАНИЙ В ИТАЛЬЯНСКОМ ЯЗЫКЕ В ПОВЫШЕНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОСТИ РЕЧИ (НА ПРИМЕРЕ «I PROMESSI SPOSI» МАНЦОНИ)

Аннотация

В данной работе исследуется роль восклицательных слов в повышении эмоциональности речи в произведении знаменитого итальянского писателя Алессандро Манцони «Обрученные». Восклицательные слова, выражающие чувства, играют важную роль в усилении внутреннего мира и эмоций персонажей. Манцони, используя восклицательные слова в своем произведении, оживляет чувства героев, такие как горе, любовь, надежда и страх. Эти слова усиливают воздействие событий, позволяя читателю почувствовать себя вместе с героями. Приводятся примеры восклицательных слов, их роль в контексте и то, как они увеличивают эмоциональную нагрузку речи.

Ключевые слова: восклицательные слова, эмоциональное выражение, речь, исторический контекст, анализ, литературоведение, социальные проблемы.

THE ROLE OF EXCLAMATIONS IN ITALIAN LANGUAGE IN INCREASING THE EMOTIONALITY OF SPEECH (ON THE EXAMPLE OF MANZONI'S "I PROMESSI SPOSI")

Annotation

This work examines the role of exclamatory words in enhancing the emotionality of speech in the work of the famous Italian writer Alessandro Manzoni, "I Promessi Sposi" (The Betrothed). Exclamatory words, which express emotions, play a crucial role in intensifying the inner world and feelings of the characters. Through the use of exclamatory words, Manzoni brings to life the emotions of the characters, such as grief, love, hope, and fear. These words enhance the impact of the events, giving the reader the opportunity to feel along with the characters. The paper highlights examples of exclamatory words used in the text, their role in context, and how they increase the emotional weight of the speech.

Key words: exclamatory words, emotional expression, speech, historical context, analysis, literary studies, social issues.

Kirish. Nutq – bu insonning fikr va his-tuyg'ularini, ma'lumotlarini so'z orqali ifodalash jarayoni. Nutq ikki asosiy shaklda mavjud: og'zaki va yozma. Og'zaki nutq-bu suhbat, munozara va taqdimotlar kabi bevosita muloqotda ifodalanadigan nutq turidir. Yozma nutq esa-kitob, maqola yoki xat kabi yozma shakllarda taqdim etiladi.

Nutq emotsionalligini oshirishda til vositalarining o'rni katta. Undov so'zlar, sinonimlar, ta'sirli iboralar va nutqning ritmi kabi elementlar emotsional ifoda darajasini oshiradi. Nutqdagi bu elementlar, o'quvchi yoki tinglovchining his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish, ularni voqeaga jalb qilish va qahramonlar bilan bog'lanish imkoniyatini yaratadi.

Undovlar-his-hayajon, buyruqxitob, haydash, chaqirish kabi ma'nolarni bildiruvchi, gap bo'laklari bilan grammatik bog'lanmaydigan so'zlar turkumi va shu turkumga oid muayyan so'zlardir. Undovlar asosiy xususiyatlariga ko'ra 2 turga bo'linadi: emotsional (hissiy) undovlar va buyruqxitob undovlar.

Emotsional undovlar kishilarning histuyg'usi, ruhiy holatini bildiruvchi undovlar bo'lib, ular ma'no jihatidan rang-

barangdir. Ijobiy emotsional undovlar matn va ohang bilan bog'liq ravishda: 1) shafqat, mehribonlik (iye, o, eh); 2) sevinch, zavqlanish, havas (voy, o'hho'); 3) qoyil qolish, rohatlanish (hayhay, o) ma'nolarini bildiradi. Salbiy histuyg'ularni ifodalovchi undovlar esa: 1) e'tiroz, norozilik, shikoyat, zorlanish (qa, ho, voyey, uh, obbo); 2) jirkanish, nafrat, g'azab, jahl (e, eh, voy, ha); 3) achinish, afsuslanish (he, eh, oh); 4) kinoya, kesatq, piching, koyish (obbo, oha, hoo, hayhay, hoyhoy); 5) cho'chish, vahima, dahshat (voyey, oh, voydod); 6) ajablanish, hayratlanish, ranjish (i, ee, baybaybay, he) kabi ma'nolarni bildiradi.

-Undov so'zlar adabiyotda muhim ifodaviy vosita sifatida ishlatiladi. Ular ko'pincha qahramonlarning hissiyotlarini, ichki holatini va voqealarning dramatikligini oshirish uchun ishlatiladi.

-Undov so'zlar voqealarning dramatikligini oshiradi. Dastlabki tuyg'ularni kuchaytirish orqali o'quvchining voqeaga jalb qilinishi va qahramonlarga empatiya hissi yaratiladi. Bu asarlarni o'qishda o'quvchini yanada chuqurroq his qilishga yordam beradi.

-Undovlar shaxsiy va ijtimoiy nizolarni ta'kidlaydi. Masalan, qahramonning qayg'usi yoki qo'rquvi muhim voqea yoki mojaroni yoritish uchun ishlatilishi mumkin. Ular o'quvchining voqeaga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

-Undov so'zlar adabiyotda ritm va musiqiylikni ta'minlaydi. Ular matnning muvozanatini va go'zalligini oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, she'riyatda undovlar uslubiy jihatdan ahamiyatlidir.

-Undov so'zlar harakat va dinamikani kuchaytirish uchun ham ishlatiladi. Qahramonning o'zgarishi yoki voqealar rivoji paytida undovlar voqea ijodida yangilik va qiziqish hosil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Undovlar (interiezioni) turli gap bo'laklarida ishlatilishi mumkin, lekin ular ko'proq og'zaki nutqda yoki badiiy asarlarda emotsional ifodani oshirish uchun ishlatiladi. Undovlar juda qadimiy bo'lib, inson nutqining dastlabki shakllaridan biri sifatida qaraladi. Ular insonning emotsional holatini ifodalash uchun zarur bo'lgan dastlabki so'zlar sifatida paydo bo'lgan. Undovlarning adabiyotda qo'llanilishi O'rta asrlarda, ayniqsa, she'riyat va dramatik asarlarda kuchaygan. Undovlar qahramonlarning his-tuyg'ularini yanada ta'sirli tarzda ifodalashga yordam beradi.

Bir qator olimlar undovlar va ularning til va adabiyotdagi o'rni haqida tadqiqotlar olib borganlar. Misol uchun rus olimi Roman Jakobson tilshunoslikda undovlar, shuningdek, badiiy ifoda va emotsional nuqtai nazar haqida ko'p ishlar qilgan. Jakobsonning "Lingvistik funksiyalar" haqidagi tadqiqotlari undovlarning tilshunoslikdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Yoki fransuz olimi Émile Benveniste "Problemas in General Linguistics" asarida til va undovlar o'rtaqidagi munosabatlar tahlil qilingan. U undovlarning subyektiv ifoda vositasi sifatida ahamiyatini ta'kidlagan. Yana bir rus filosofi bo'lmish, Mikhail Bakhtin badiiy adabiyot va nutq nazariyasida undovlar va boshqa ifodalar o'rtaqidagi o'zaro aloqalarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan.

Alessandro Manzoni italiyalik yozuvchi, shoir va dramaturg bo'lib, 1785-yil 7-martda Milanda tug'ilgan. U o'zining mashhur "I Promessi Sposi" (Juftlarning ahdlashuvi) romani orqali italiyalik yozuvchilar orasida zamonasining eng buyuk yozuvchilaridan biri sifatida tamal toshini qo'yadi. Manzoni ziyolilar oilasida tug'ilgan. Uning ta'limi ma'rifatparvarlik va liberalizm qadriyatlariga asoslangan edi. 1808 yilda u Enrichetta Blondel bilan oila quradi va farzandli bo'ladi.

Manzoni adabiy faoliyatini shoir sifatida boshlagan. Uning bu davrdagi eng yuksak asarlari qatorida Napoleon Bonapartning o'limiga bag'ishlangan "Il combattimento di Tarquinio e Lucrezia" (Tarkunio va Lukretsiya jangi, 1807) va "Il cinque maggio" (Beshinchi may, 1821) she'rlari bor. Manzoni roman va she'rlaridan tashqari bir qancha ocherk va tanqidiy asarlar ham yozgan. U italyan tilini adabiy til sifatida qo'llash tarafdori bo'lgan va Italiyada romantizmining rivojlanishida muhim rol o'ynagan [1].

Alessandro Manzoni, Yevropaning Romantizm harakatining demokratik g'oyalarining yorqin talqinchisi sifatida, o'z asarlari, xususan "I promessi sposi" (Juftlarning ahdlashuvi) romani orqali milliy va xalqona adabiyotga asos sifatida qaraydi. U shuningdek, butun xalq uchun tushunarli va umumiy bo'lgan italyan tilini yaratdi, bu soxta munosabatlardan, badiiy nazokatlardan va an'anaviy urf-odatlardan uzoq edi. Manzoni, aslida, o'quv yillarida o'zlashtirgan neoklassik madaniyatdan tezda voz kechdi va Lombardiyaning yoritilish merosini qabul qildi, bu meros unga mantiqiy va tahliliy qat'iyatni, shuningdek, jamiyatni inson harakati orqali o'zgartirish mumkinligiga bo'lgan ishonchni berdi.

Manzoni asarni yoritib berish asoslariga tayangan holda, Lombardiyadagi xotiralari va Parijda o'tgan yoshligi bilan bog'liq bo'lgan tendensiyalarni o'z ichiga oldi va quyidagi g'oyalarni rivojlantirdi:

-o'tmish davrlariga chuqur tarixiy qiziqish

-liberal va demokratik siyosiy qarashlar

-XIX asr Italiyasidagi inqilobiy ruhning ta'sirida shakllangan vatanparvarlik istaklari

-adabiyotning pedagogik va fuqarolik mas'uliyati sifatida qabul qilinishi

-chin dildan diniy iztirob.

Manzonining shaxsiyati va ijodi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. XX - XXI asr adabiyotshunoslari ayniqsa ushbu masalaga jiddiy qiziqish bildirishgan. Avvalo, bu italyan yozuvchilari va tanqidchilari edi. Shunday qilib, italyan adabiyotshunosi Jorcio Petrokki Manzonining ijodini o'rganishga ikkita kitob bag'ishlagan ("Manzoni va tarixiy roman" Rim, 1967. "Manzoni, hayoti va ijodi"). Shuningdek, mashxur olim, faylasuf, yozuvchi va jamoat arbobi Umberto Eko esa, 1983-yilda "Name of Rose asaridagi sahifa qaydlarida" "Juftlarning ahdlashuvi" asarini tarixiy roman sifatida tavsiya qiladi [2].

Shuningdek aytib o'tish kerakki, 2010-yilda Umberto Eco Alessandro Manzonining "Juftlarning ahdlashuvi" asarini qaytadan Renzo va Lucianing hikoyasini bolalar uchun o'z versiyasida chop etadi.

Bizning zamondoshimiz Piatro Genesini Manzoni haqida shunday yozgan edi: "Manzoni ha una formazione illuministica e fa suoi gli ideali di libertà, fraternità e uguaglianza..." ("Manzoni ma'rifatparvarlik tarbiyasiga ega bo'lib, erkinlik, tenglik va birodarlik g'oyalariga sodiq edi...") [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Alessandro Manzonining "I Promessi Sposi" asarida undov so'zlarni tahlil qilish uchun bir necha metodlardan foydalanish mumkin:

1. Lingvistik tahlil: Undov so'zlarning grammatik xususiyatlarini (morfologiya, sintaksis) o'rganish, ularning funksiyasini va kontekstda qanday ishlatilishini ko'rib chiqish.

Semantik tahlil: Undov so'zlarning ma'nolari va ifoda etayotgan hissiyotlarini o'rganish, har bir undov so'z qaysi hissiyot yoki kayfiyatni ifodalaydi, shuni aniqlash.

Diskursiv tahlil: Undov so'zlarning asardagi konteksti va personajlar o'rtaqidagi muloqotdagi roli, ularning asar rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilish.

Psixologik tahlil: Undov so'zlarning personajlar hissiy holatlari bilan bog'lanishi, ularning ichki his-tuyg'ularini qanday aks ettirayotganini o'rganish.

Tarixiy-kulturologik tahlil: Undov so'zlarning tarixiy va madaniy kontekstdagi ahamiyatini ko'rib chiqish, Manzonining davrida undov so'zlar qanday qo'llanilganini tahlil qilish.

Chog'ishtirma metod (yoki chog'ishtirma tahlil) - bu tadqiqotlarda va tahlil jarayonlarida foydalaniladigan usul bo'lib, u bir necha obyekt yoki hodisalarni bir-biri bilan solishtirishga asoslanadi. Bu metodning maqsadi biror masalaning yoki fenomenning o'ziga xos jihatlarini aniqlash, o'xshashliklar va farqlarni ko'rsatishdir.

O'zaro taqqoslash orqali obyektlarning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu orqali muayyan jihatlar bo'yicha chuqurroq tahlil olib borish mumkin. Chog'ishtirma tahlil ko'pincha bir obyekt yoki hodisa haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lgan narsani "birinchi" deb, kam ma'lumotga ega bo'lgan narsani esa "ikkinchi" sifatida olish orqali amalga oshiriladi.

Kontekstual tahlil: Bu metod kontekstni hisobga olgan holda obyektlarning o'zaro munosabatlarini o'rganishga yordam beradi. Buning yordamida obyektlarning ma'nosi va ahamiyatini yaxshiroq tushunish mumkin.

Tadqiqot jarayonida foydalanish: Chog'ishtirma metod ko'plab sohalarida, jumladan, adabiyot, ijtimoiy fanlar, psixologiya va tarixda keng qo'llaniladi. Masalan, ikki yoki bir nechta asarlarni, mualliflarni yoki davrlarni solishtirishda.

Natijalarning qo'llanilishi: Chog'ishtirma tahlil natijalari, ko'pincha, yangi nazariyalarni ishlab chiqish, ijtimoiy tendentsiyalarni aniqlash yoki tilning rivojlanishini tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Italyan tilida undov so'zlar ko'plab turli his-tuyg'ularni ifoda etadi. Quyida ba'zi mashhur undov so'zlarni ko'rib chiqamiz:

Oh! - Hayrat yoki ajablanish ifodasi. Oh! Che bello. (Oh! Qanday go'zal)

Ehi! - Diqqatni jalb qilish yoki kimsaning e'tiborini tortish uchun. "Ehi! Dove sei?" (Ehi! Qayerdasiz?)

Uffa! - Charchaganlik yoki bezovtalik ifodasi. Uffa! È così noioso! (Uffa! Bu juda zerikarli!)

Mamma mia! - Hayrat, ajablanish yoki qayg'u ifodasi. "Mamma mia! Che sorpresa!" (Mamma mia! Qanday kutilmagan voqea!)

Bravo! - Maqtov yoki qo'llab-quvvatlash ifodasi. "Bravo! Hai fatto un ottimo lavoro!" (Bravo! Ajoyib ish qilding!)

Boh! - Beparvolik yoki qiziqmaslik ifodasi. "Boh! Non lo so." (E! Bilmayman.)

Accidenti! - Hayrat yoki qahr ifodasi. "Accidenti! Ho dimenticato le chiavi." (Jin ursin! Kalitlarni unutib qo'ydim.)

Alessandro Manzoni davrida, ya'ni 19-asrning boshlarida, undov so'zlar italiyan tilida va adabiyotida muhim rol o'ynagan. Ular ko'plab his-tuyg'ularni ifodalashda, shuningdek, dialog va xarakterlarni rivojlantirishda qo'llanilgan. Quyida ba'zi jihatlarni ko'rishimiz mumkin:

Emotsional ifoda: Undov so'zlar o'z hissiyotlarini ochiq va kuchli ifodalashda yordam bergan. Ular odamlarning hayrat, baxt, g'azab kabi hissiyotlarini tezda ifodalashga imkon bergan: "Eh! Non toccate la carne d'un galantuomo, che...! Mi so vestir da me". (Ey! Tanamga tegma, kim...! Men qanday kiyinishni bilaman).

Muloqotda ishlatish: Undov so'zlar personajlar o'rtaqidagi muloqotda, ularning fe'l-atvorlarini va hissiy holatlarini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. "Ohe! Che prepotenza è questa? - gridò Renzo, ritirando il braccio. - Oste! o l'oste!" (Oh! Bu qanday takabburlik? - baqirdi Renzo qo'lini tortib. - Mehmonxona egasi!)

Ommaviy madaniyat: Undov so'zlar xalq og'zaki madaniyatida ham keng tarqalgan. Ular ko'pincha xalq qiziqishlari va qadriyatlarini bilan bog'liq bo'lgan ma'nolarni ifodalashda ishlatiladi. Misol uchun: "Dio mio" (Voy xudoyim), "Per l'amor di Dio" (Xudo haqqi uchun), "Mamma mia" (Voy oyijon), "Madonna" (Madonna). Ushbu undov so'zlar ajablanish, hayrat, g'azab kabi his-tuyg'ularni ifodalaydi.

Umuman olganda, Manzoning davrida undov so'zlar tilning rang-barangligi va ifoda kuchini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Quyida Manzoning ijodidan undovlarga misollarni ko'rib chiqamiz:

"Ohimè! tacete, e non apparecchiate altro: datemi un bicchiere del mio vino." (Oh! tinchlaninglar, boshqa narsa tayyorlamanglar: menga vinomdan bir qadah beringlar.) Ushbu Manzoning "I Promessi Sposi" asarida Don Abbondio va uning xizmatkori Perpetuaning dialogidan olingan jumlada keltirilgan "Ohimè!" so'zi undov so'zning bir ko'rinishidir. "Ohimè" so'zi umidsizlikning ifodasi sifatida berilgan.

"Eh? ci vuol altro, ci vuol altro, ci vuol altro. Così dicendo prese il lume, e, brontolando sempre: - una piccola bagattella!" (Eh? Boshqa narsalar kerak, boshqa narsalar kerak, boshqa narsalar kerak. Shu gapni aytib, u chiroqni oldi va to'ng'illab: - bir oz ahamiyatsiz narsa, dedi.)

"Ah! voi vorreste farmi parlare; e io non posso parlare, perchè... non so niente: quando non so niente, è come se avessi giurato di tacere." (Ah! Siz meni gapirtirmoqchisiz; lekin men gapira olmayman, chunki... hech narsani bilmayman: hech narsani bilmaganimda, go'yo sukut saqlashga qasam ichgandek bo'ladi.)

"Ah Lucia! e poi? Non siamo ancora marito e moglie! Il curato vorrà farci la fede di stato libero? Un uomo come quello? Se fossiamo maritati, oh allora...!"

(Ah Lucia! Keyin nima? Biz hali turmush qurmaganmiz! Ruhoniy ota bizga erkin davlatning e'tiqodini berishga tayyormi? Shu odam-a? Qaniydi biz turmush qurgan bo'lganimizda, oh...!) Bu yerda undov so'z qayg'u va g'am tuyg'ularini ifodalaydi.

-Ah! ah!-fu il suo saluto, mentre si levava gli occhiali, e li riponete nel libricciolo.

-Dirà il signor curato, che son venuto tardi,-disse Tonio, inchinarsi, come pure fece, ma più goffamente, Gervaso.

-Sicuro ch'è tardi: tardi in tutte le maniere. Lo sapete, che sono ammalato?

-Oh! mi dispiace.

-L'avrete sentito dire; sono ammalato, e non so quando potrò lasciarmi vedere... Ma perché vi siete condotto dietro quel... quel figliuolo?

-Così per compagnia, signor curato.

-Basta, vediamo.

-Ah! ah! — dedi u salom berar ekan, ko'zoynagini yechib, kitobchaga qo'ydi.

"Qo'rqaman, hurmatli imom, kech kelganimni aytasizmi?" — dedi Tonio, egilib. shuningdek, Gervaso ham egildi, lekin ancha o'zgacha va noqulay tarzda.

- Albatta, kech keldingiz, har jihatdan kech. Bilasizmi, men kasalman?

- Oh, juda ham afsusdaman.

-Ehtimol, eshitgandirsiz, men kasalman, va qachon tuzalib ko'rinishga chiqishimni bilmayman... Ammo nima uchun bu yigitni o'zingiz bilan olib keldingiz?

- Hamroh sifatida, hurmatli imom.

-Yetarli, qani ko'ramiz.

-Ah! avete inteso anche voi, - riprese Renzo: - dunque è vero. Quando le ragioni son giuste...! (Ah! Siz ham eshitdingizmi? - dedi Renzo davom etib. - Demak, bu haqiqat. Haq yo'lida bo'lganda, sabablarga to'g'ri keladi.) Bu gapdagi "Ah!" undovi ajablanish, tushunish yoki kutilgan natijaga ishora qilish kabi his-tuyg'ularni ifodalash uchun ishlatilgan. Renzo bu undovni, nima deganini yoki nima sodir bo'lganini tasdiqlash yoki tushunganini bildirgan holda ishlatmoqda.

Xulosa va takliflar. Undovlar tarixan muhim o'rin tutgan va ularga oid tadqiqotlar davom etmoqda. Ularning emotsional ifodalarni kuchaytirishdagi roli adabiyot va tilshunoslikda keng qamrovli o'rganilmoqda, bu esa undovlarning ahamiyatini yanada oshiradi. Rus adabiyotshunosi va tilshunosi Viktor Shklovskiy aytganidek "Undovlar tilning jonli va hissiy tomonidir."

Alessandro Manzoning "I Promessi Sposi" asarida undov so'zlarining nutq emotsionaligini oshirishdagi roli juda muhimdir. Undov so'zlar nafaqat qahramonlarning ichki holatini, balki voqealarning dramatikligini ham kuchaytiradi. Asarda undov so'zlari orqali qahramonlarning qayg'usi, hayrat, sevgi, qo'rquv kabi hissiyotlari jonlanadi, bu esa o'quvchiga o'zini qahramonlar bilan birga his qilish imkonini beradi. Undov so'zlar asar matnini ritmik va melodik jihatdan boyitadi, shuningdek, ularning tilga olib kirilishida dramani kuchaytirish va o'quvchining hissiy reaksiyasini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Undov so'zlar, shuningdek, nutqning tezkor va jonli ifodalanishini ta'minlaydi, qahramonlarning ruhiy holatini ochishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu elementlar

nafaqat adabiy asarlarda, balki og'zaki nutqning har xil shakllarida ham o'zining ahamiyatini yo'qotmaydi. O'quvchilarga hissiy tajriba taqdim etishda undov so'zlarning roli alohida e'tiborga loyiqdir.

Tadqiqotda Manzoni asaridagi undov so'zlarining nutq emotsionalligini oshirishdagi roli yoritilgan bo'lsa-da, undov so'zlarni boshqa adabiy asarlarda ham tahlil qilish kerak. Bu, undovlarning turli kontekstlarda qanday ishlatilishini va ularning xarakterlar bilan bog'liq hissiy tajribalarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Undov so'zlarining grammatik xususiyatlarini, morfologiyasi va sintaksisini o'rganish orqali, ularning qanday qilib ifodalash vositasi sifatida ishlatilishini aniqlash mumkin. Bu tilshunoslik nuqtai nazaridan, til va undovlarning o'zaro munosabatlarini chuqurroq o'rganishga imkon yaratadi.

Bugungi kunda undov so'zlarining nutqdagi ahamiyati va ishlatilishidagi o'zgarishlar ham tahlil qilinishi kerak. O'rta asrlardan to hozirgi kungacha, undov so'zlar qanday rivojlanib borganini va ularning ijtimoiy kommunikatsiya jarayonidagi roli qanday o'zgarganini o'rganish foydali bo'ladi.

Xulosa sifatida, Alessandro Manzoni asaridagi undov so'zlari faqat hissiy holatlarni ifodalash vositasi emas, balki adabiy uslubning ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyatga ega. Ular asarning ruhini va atmosferasini yaratishda, qahramonlarning ichki dunyosini o'quvchiga etkazishda beqiyos rol o'ynaydi. Undov so'zlarining tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yanada chuqurroq o'rganilishi, ularning nutqdagi ahamiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Italian yozuvchisi Alessandro Manzoni ijodida sotsiolingvistik birliklarning ifodalanishi. 2023, dekabr. "Arab tili globallashuv davrida: innovatsion yondoshuvlar va o'qitish metodikasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman.
2. Eco U. *Betrothed*. M.: Astrel 2013.
3. Genesini P. *Letteratura italiana 123* – Padova. 2017. C. 195
4. Usmonov S, *Undovlar*, T., 1953; O'zbek tili grammatikasi, 2j.li, 1j. T., 1975; Hozirgi o'zbek adabiy tili, I-qism, T., 1980,
5. Augustus Pallotta. *Alessandro Manzoni. A Critical Bibliography. 1950-2000*.
6. Pisa-Roma: Fabrizio Serra editore, 2007. Pp. xv, 467.
7. https://www.liceolucipiccolo.edu.it/e-teacher/italiano/Alessandro_Manzoni.pdf
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Undovlar>
9. https://www.academia.edu/77753780/Alessandro_Manzoni_A_Critical_Bibliography_1950_2000_br_Come_abbiamo lett_o_Manzoni_Interpreti_novecenteschi